



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



BAYRONKOR G'OYALAR MAFKURAVIY TAHDID VA XAVF- XATARLARNING IN'IKOSI SIFATIDA

Yuldasheva Matluba Munavarovna

Qo'qon davlat universiteti Falsafa va dinshunoslik kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Maqolada, jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiladigan g'oya va mafkuralar bilan bir qatorda inson manfaatlariga xizmat qiluvchi ezgulik va bunyodkorlik g'oyalarining kelib chiqishi, genezisiga asosiy e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'z va tushunchalari: Inson, jamiyat, o'tmish, tarix, taraqqiyot, ezgulik, buzg'unchi, ijodkorlik, bunyodkorlik, g'oya, mafkura, tahdid

ЭКСТРЕМИСТИЧЕСКИЕ ИДЕИ КАК ОТРАЖЕНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ УГРОЗ И ОПАСНОСТЕЙ.

Юлдашева Матлуба Мунаваровна

Доцент кафедры философии и религиоведения
Кокандского государственного университета

Аннотация: Статья посвящена генезису и происхождению гуманистических и творческих идей, которые служат интересам человека, а также идеям и идеологиям, которые препятствуют развитию общества.

Ключевые слова и понятия: Человек, общество, прошлое, история, развитие, добро, деструктивность, креативность, идеи, идеология, угроза

EXTREMIST IDEAS AS A REFLECTION OF IDEOLOGICAL THREATS AND DANGERS

Yuldasheva Matluba Munavarovna

Associate professor of the department of
Philosophy and religious studies, Kokand state university

Abstract: The article focuses on the genesis and origin of humanistic and creative ideas that serve human interests, along with ideas and ideologies that hinder the development of society.

Key words and concepts: person, society, past, history, development, goodness, destructive, creativity, ideas, ideology, threat.

Kirish.

Jamiyat barqarorligini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlar va ularning oldini olish muammolarini tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, so'nggi yillarda global miqyos kasb etib, jamiyatning barcha sohalarini qamrab olayotgan turli xavf-xatarlar vujudga keldi, ularning oldini olishning samarali yo'llarini aniqlash ustuvor vazifaga aylandi. Zero, inson ongi va qalbi uchun kurash

tarixan turli shakllarda insoniyat hayotidan o‘rin egallab kelgan. Hozirgi davr mafkuraviy tahdidlarning kuchayib borayotgani, turli oqimlar va kuchlar tomonidan g‘arazli maqsadlar yo‘lida amalga oshirilayotgan, jamiyat ma‘naviy barqarorligiga salbiy ta‘sir etadigan mafkuraviy xurujlarning yuzaga kelayotgani bilan xarakterlanadi. Zero, globallashuv sharoitida jamiyat hayotiga xavf solayotgan tahdidlar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lib, ta‘sir kuchi ortib bormoqda. Xususan, turli yovuz va vayronkor g‘oyalar, qarashlarning murakkab sintezi sifatida chiqayotgan mafkuraviy tahdidlar jamiyat umumiy xavfsizligiga jiddiy ta‘sir etayotganini ta‘kidlash zarur. Bu mafkuraviy tahdidlarning mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari va ijtimoiy oqibatlariga yangicha nuqtai nazardan yondashuvni taqozo qiladi.

Shuningdek, bugungi kunda ilg‘or kommunikatsiya vositalari sharoitida mafkuraviy ta‘sir ko‘rsatish tezkor va shiddatli tus olib, turli soha va yo‘nalishlar doirasida xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Bu mafkuraviy tahdidlarning tarixan yangi sifat bosqichiga kirganini ko‘rsatadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarning hozirgi davrda namoyon bo‘lish xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda buyuk mutafakkir ajdodlarimizning ma‘naviy barkamol insonni tarbiyalash masalalari aks etgan mumtoz asarlari muhim o‘rin tutadi. Bu borada Imom Buxoriy (810-870), “Bolaning tabiati islomiy (bu o‘rinda “ishonuvchan” – M.YU.) bo‘ladi, uni qanday g‘oyalar bilan to‘ldirish ota-ona va ustozga bog‘liq”^[1] - deydi. Abu Nasr Forobiy (873-950), inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lishi, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi, deydi. Abu Rayhon Beruniy (973-1048) inson hayotiga daxl qiluvchi xavf-xatarlar haqida fikr yurita turib, ular ko‘p hollarda yovuz niyatda qilinishini qayd etadi^[2].

Zero, yoshlarning demografik guruh sifatida psixo-fiziologik va ijtimoiy jihatdan voyaga etish jarayonlari o‘zaro uyg‘un holda mafkuraviy tarbiya nuqtai nazaridan o‘rganish barobarida, ayrim yoshlarning zararli mafkuraviy oqimlar ta‘siriga tushib qolish sabablari tahlil etiladi.

Ma‘lumki, hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlar namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning oldini olish yo‘llarini ijtimoiy-falsafiy tahlil etish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kishilik jamiyatining ko‘p ming yillik tarixi barcha davrlarda ezgulik va bunyodkorlikka etaklovchi qarashlar, g‘oya va mafkuralar bilan bir qatorda, ularga qarama-qarshi bo‘lgan, inson hayotini izdan chiqarish, jamiyat va ijtimoiy tizimlarning emirilishiga, tanazzulga yuz tutishiga zamin yaratgan buzg‘unchi va vayronkor qarashlar, g‘oya va mafkuralar ham mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

Tarixdan ma‘lumki, bosqinchilik va urushlar buzg‘unchi mafkuralar asosida bo‘lgani va keyingi besh ming yil mobaynida odamzot o‘n besh mingdan ziyod katta-kichik urushlarni boshidan kechirganini bilamiz. Urushlarni yoklaydigan, bosqinlarni, odamlar va butun boshli xalqlarni qirg‘in qilishni oqlaydigan manfur mafkuralar ham bo‘lgan. Jumladan, diniy ta‘limotlarda bosqinchilik va odam o‘ldirish qat‘iy qoralanadi. Binobarin, gumanistik mohiyatga ega diniy aqidalar tinchlik, totuvlik va

¹ Имом ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. – Тошкент: Мовароуннахр, 2005. – Б. 16.

² Абу Райхон Беруний. “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”. –Тошкент: Фан, 1972. – Б. 68.

bag'rikenglikni yoklaydi. Lekin diniy jaholatparastlik okibatida inkvizitsiya hukm surgani, salb yurishlari, «Varfolomey tuni» kabi qirg'inlarning sodir bo'lgani ham ma'lum?! Bu holat hozirda ham diniy aqidaparastlik, ekstremizm tarzida namoyon bo'lmokda.

Boshqacha aytganda, bunyodkor inson va jamiyat kamolotiga xizmat qiladigan g'oyalar singari ularga nisbatan tahdidlar, buzg'unchi g'oya va mafkuralarning siyosiy maqsadlari tarkib topmoqda. YA'ni, "Muayyan g'oyani ilgari suruvchi, targ'ibot va tashviqotning turli usul, vositalari orqali odamlar ongi, ruhiyatiga ta'sir etuvchi kishilar uyushmasi, tashkilot yoki muassasalar"^[3] borligini inkor qila olmaymiz.

Zero, bosqinchilik g'oyasi va mafkurasi ko'p asrlar mobaynida qonli urushlarga, xalqlarni qirish va asoratga solish, yurtlarni vayron qilish, boyliklarini egallashga xizmat qildi. Qadimda ham bunday tajovuzkorlik turli sabablar bilan oqlanar, go'yo "Adolat o'rnatish", "vahshiy xalqlarni madaniyatga o'rgatish", "g'ayridinlarni to'g'ri yo'lga solish" kabi bahonalar bilan niqoblanar edi.

Turon zamin ham qadim-qadimdan turli bosqinchilik yurishlaridan aziyat chekkani tarixdan ma'lum. Biz uchun zaminimizni nafaqat dushmanning quroli, balki uning yot va begona, buzg'unchi mafkuradan himoya qilishni hayotining mazmuni, deb bilgan SHiroq, To'maris, Spitamen, Torobiy kabi erksevarlarning, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari sarkardalarning vatanparvarligi ibrat namunasidir. Binobarin, yosh avlodni faqat o'tmish bilan faxrlanish emas, buyuk ajdodlarga munosib bo'lishga da'vat qilish, jahon e'tirof etgan ishlarga undash juda muhimdir.

Insoniyatning, jumladan O'zbekiston hududining necha yuz yillik solnomasida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo'rlik, kulfat urug'larini sochish va qon to'kilishiga sabab bo'lgan buzg'unchi g'oyalar va mafkuralarning halokatli ta'siri bilan bog'liq qayg'uli sahifalar ko'p, deb yozadi tarixchi olim D.Alimova. Bu g'oyalar o'zlarida siyosiy bosqinchilik va mustabidlik intilishlarini goh oshkora ifodalagan holda diniy, milliy, sinfiy shiorlarni bayroq qilib maydonga chiqqanini ko'ramiz. Lekin mohiyat hamisha o'zgarmay qolavergan. Ya'ni, ular millatlar va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, an'ana va urf-odatlarini kuch bilan o'zgartirishga, keng xalq ommasini boshqalarning siyosiy irodasiga bo'ysundirish va mafkuraviy asoratga solishga, o'zaro adovatga asoslangan ijtimoiy tartiblarni qaror toptirishga, millatga yot mafkuraviy tasavvurlarni tiqishtirishga intilgan"^[4].

Zero, turli g'oya va qarashlar tizimida o'z ifodasini topadigan mafkuraviy taxdidlar makon va zamon nuqtai nazaridan qam mazmuni, ham shakliga ko'ra o'zgarib, takomillashib boradi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish o'zgaruvchan, birok, doimiy xarakterini saqlaydi. Chunonchi, kolonializm ayrim davlatlar tomonidan turli mintaqa va xududlarda istiqomat qiladigan xalq elat va millatlarni mustalaka xolatiga tushirish yani o'ziga xar tomonlama bog'liq qaram qilib olish mafkurasi sifatida qadim davrlarda ko'plab xarbiy urushlarga sabab bo'lgan.

XX asrga kelib xalqaro munosabatlarda hududiy daxlsizlik tamoyilining mustaqamlanishi, ochikdan-ochiq agressiv xarbiy qarakatlarni olib borish ta'qiqlandi. O'zaro munosabatlarda tenglik, hurmat va manfaatli hamkorlik qilish qoidalariri

³ Маънавият асосий тушунчалар изохли луғати. // Қ.Наааров таҳрири остида. - Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт- матбаа ижодий уйи, 2009. 293-6

⁴ Алимова Д. Инсоният тарихи — ғоя ва мафкуралар тарихидир. — Т.: Янги аср айлоди, 2001. 18-19-б.

rasmiylashdi. Birok,, bu bilan ayrim davat va kuchlarda boshqa xalqlar, hududlar, ulardagi er osti va er usti boyliklari va boshqa resurslarni tasarruf etish mayli susaygani yo'q. Bu esa mustabidchilik mafkurasining yangi mazmundagi g'oyalar bilan boyishiga zamonaviy shakllarda namoyon bo'lishiga olib keldi?

O'z navbatida, "urush" tushunchasining ham mazmuni kengayib bordi. V.Slipchenkning fikriga ko'ra, bugungi kunga kelib, urush murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, turli ko'rinishdagi kurashlar majmuasini tashkil etadi. Davlatlar va turli sotsial tizimlar o'rtasida kechadigan siyosiy, iqtisodiy, harbiy, axborot va boshqa shakldagi kurashlar shular jumladandip'^[5].

Geografik hududlar zo'ravonlik yo'li bilan bosib olingach uning ustidan Ijtimoiy siyosiy nazorat bevosita turli g'oyaviy va mafkuraviy siyosat orqali mustaxkamlangan. SHu o'rinda kolonializm mafkurasining geografik determinizm tamoyili ustuvor bo'lgan geosiyosiy talimot va qarao'lardan g'oyaviy ozuqa olganini ham takidlash lozim. Bu esa, bir tomondan, geosiyosat ilmiy bilimlar tizimi sifatida rasmiylashib borishi insoniyat ilmiy salohiyatining o'sishini, ikkinchi tomondan, mafkuraviy tahdidlar rivojlanishida yangi sifat bosqichini boshlab berdi.

Ta'kidlash joizki, bir tomondan, geosiyosatning ilmiy bilimlar tizimi sifatida rasmiylashib borishi insoniyat ilmiy salohiyatining o'sishini, ikkinchi tomondan, mafkuraviy tahdidlar rivojlanishida yangi sifat bosqichini boshlab bergan.

Sirasini aytganda, murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash uchun ularning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash kabi alohida ahamiyatga ega vazifalssarni samarali bajarish ob'ektiv zaruriyatdir. Shuningdek, mafkuraviy tahdidlar ezgu, bunyodkor g'oyalarning aksi sifatida vayronkor xarakterga ega. Ular ob'ektiv xususiyat kasb etadi, sub'ekt ongi va qalbiga yo'nalgan bo'ladi. Muntazam davom etadigan g'oyalar kurashi va raqobati natijasida mafkuraviy tahdidlar mazmunan boyib, xilma-xil shakllarda namoyon bo'lib boradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Имом ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. – Тошкент: Мовароуннахр, 2005. – Б. 16.
2. Абу Райхон Беруний. “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 68.
3. Маънавият асосий тушунчалар изохли луғати. // Қ.Наааров тахрири остида. - Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт- матбаа ижодий уйи, – 2009. –293 б.
4. Алимова Д. Инсоният тарихи— ғоя ва мафкуралар тарихидир. — Т.: Янги аср авлоди, 2001. 18-19-б.
5. Слипенченко В. Война будущего (прогностический анализ). - М.: Глобус, 2001. - С. 5.
6. [Анчуков](#) С. Геополитика как идеология и практика мирового исторического процесса. – М.: Страна, 1999. – С. 65-89.

⁵ Слипенченко В. Война будущего (прогностический анализ). - М.: Глобус, 2001. - С. 5.